

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUSTA'LIMVAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

«KOSTYUM DIZAYNI» KAFEDRASI

Palvanova Indira

**“Xon atlas” matosidan maktabgacha yoshdagi qiz bolalar uchun bashang
liboslar toplami dizayn loyihasini ishlab chiqish**

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Rahbar: dots. Vaxidova. U. A

«____»_____2016 y.

TOSHKENT 2016

Mundarija

Kirish.....	3
1. Loyiha oldi qismi.....	6
1.1. Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish.....	6
1.2. Kichik yoshdagi qiz bolalar liboslari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi.....	8
1.3. Marketingtadqiqotlar.....	10
1.4. Bolalar liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablar.....	13.
1.5. Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash.....	15
2. Loyiha qismi.....	18
2.1.1.Kolleksiyani kompozitsion yechimi va koloristik qatorini tanlash....	18
2.1.2.Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texnik tavsifini ishlab chiqish.....	24
2.1.3. Texnik eskizlarni yaratish.....	25
2.2. Kolleksiyaning loyihalash usulini tanlash va asoslash.....	30
2.3. Konstruktor - texnologik qism.....	31
2.3.1. Kolleksiya uchun materiallar paketini konfeksiyalash.....	34
2.3.2. Konstruksiyalash usulini tanlash va asoslash.....	35
2.3.3. Buyum asosiy detallar chizmalarini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar.....	36
2.3.4. AK va MK hisobi va qurish.....	37
2.3.5. AK va MK konstruktiv - dekorativ modellashtirish.....	41
2.3.6. Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish.....	42
2.3.6.1. Yangi modellar andozalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi.....	51
2.3.6.2. Andozalar joylashmasi.....	51
2.3.7 Texnologik ishlov berish xususiyatlari.....	52
2.4. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.....	52

2.4.1. Nom tanlash (Brand-name).....	52
2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.....	53
3. Mehnat muhofazasi va ekalogiya qismi.....	55
Xulosa.....	58
Adabiyotlar ro'yxati.....	59
Ilova.....	61

Kirish

To'qimachilik va yengil sanoati sarmoyalarni sarflash uchun uchinchi yo'nalishdir. O'zbekiston - jahonda ko'p paxta yetishtiradigan davlatlardan biridir. Bundan tashqari, ipak, sun'iy tola, jun kalava ishlab chiqaramiz. Biz to'qimachilik va yengil sanoat tarmog'ini har tomonlama yangilash loyihasini tayyorlashga doir barcha ishlarni qo'llab quvvatlaymiz.

Jahonbozorlarida raqobat kuchayib borayotgan bugungi sharoitda iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi[1].

Respublikamizda dizayn sanoat mahsulotlari bozordagi mavqeini, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish, mahsulot raqobatdoshligini oshirish kabi masalalar bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Korxonalar ishlab chiqarish maqsadlarini amalga oshirish, yangi tovarlar ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish resurslari – ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan samarali foydalanish zarurdir. Lekin taraqqiyotning barcha bosqichlarida iqtisodiyotning doimiy va bosh muammosi ehtiyojlarining cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi bo'lib kelgan. Mana shunday sharoitda kishilarning yashashi, kamol topish uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berish g'oyat ma'suliyatli vazifadir.

O'zbekistonda xalqni yuqori sifatli, turli assortimentdagi mavsumbop bichimli, estetik ko'rinishi jihatidan aholi talablariga mos keladigan kiyimlar bilan ta'minlash, jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan sifatli mahsulot ishlab chiqarishdir.

O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga asoslangan holda bozor iqtisodiyotiga to'la ishonch bilan o'tib bormoqda. Bugungi kunda rivojlanishning yo'liga o'tish, ilm – fan yutuqlarini ishlab chiqarishda samarali qo'llash, yangi texnologiyalardan keng foydalanishgina iqtisodiy o'sishning jadalligini, davlatlarning jahon hamjamiyatidagi raqobatbardoshligini, ularning iqtisodiy havfsizligi hamda jahon iqtisodiyotiga teng huquqli integratsiyalashuvi darajasini belgilab beradi.

Iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohatlarning pirovard maqsadi – iqtisodiyotni erkinlashtirish orqali aholida erkin va farovon hayotni ta'minlashdan iboratdir. Amalga oshirilayotgan islohatlar ichida yengil sanoat ham o'z o'rniga ega. Chunki, Respublikamiz sanoat ishlab chiqarishda yengil sanoat tarmog'i yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Dizayn sanoat mahsulotlari va xalq iste'mol mollarining sifatini oshiruvchi kuchli vosita ekanligi tan olinmoqda, turli dizaynerlik tashkilotlari tashkil topmoqda. Respublikamizda dizayn sohasini rivojlanishida qilinadigan ishlarimizning ko'lami nihoyatda keng.

Inson libosni tabiatdagi nobop ta'sirlardan saqlanish vositasi sifatida idrok eta boshlaganidan buyon u insonning badiiy shakllar kashf etish, o'zida qadimiy amaliy va estetik didni mujassamlashtirish buyumlarni yaratish qobiliyatning ramzi bo'lib qoldi.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirda milliy xon-atlas matolarimizni ommaboblashtirish, "xon-atlas" matolarimizdan zamonaviy, yoshlarbob kiyimlar yaratish, mato xususiyatlarini inobatga olgan holda, uni fatin matosi bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini ochib berishdan iboratdir.

Tanlangan to'plamni milliy ruhdagi zamonaviy liboslar yaratish asosiy bosh maqsadlardan biridir. Milliy matolar qo'llanilgan bolalar ko'ylaklarini deyarli hamma texnikada aks ettirilganini ko'rish mumkin. Mavzuning dolzarbligi shundaki, milliylik va zamonaviylikni chambarchas bog'lagan holda, milliy ruhga ega bo'lgan zamonaviy liboslar to'plamini yaratish bilan birgalikda milliyligimizni

yuqori darajaga yetqazishdir. Bunda bolalar ruhiga va ongiga milliy urf odatlarimizni singdirish, milliy matolarimizni qo'llash orqali milliy g'ururni singdirish va faxr tuyg'usini uyg'otishdir.

Bitiruv malaka ishining maqsadi: Xon atlas matosidan maktabgacha yoshdagi qiz bolalar uchun bashang liboslar to'plami dizayn loyihasini ishlab chiqish.

Bitiruv malaka ishining vazifalari:

- Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish;
- Bolalar liboslari to'plamini istiqbolli moda yo'nalishini tahlil etish;
- Marketing tadqiqotlarini olib borish;
- Bolalar liboslari to'plamiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;
- Ijodiy manbani tanlash va asoslash;
- Kolleksiyaning kompozision yechimini va koloristik qatorini ishlab chiqish;
- Kolleksiyaning loyihalash usulini tanlash;
- Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish;

1. Loyiha qismi.

1.1. Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish

Dizaynda konsepsiya – asosiy g’oya, maqsadlarni, vazifalarni va vositalarni ma’naviy yo’nalishidir.

Konseptuallik - bu loyiha madaniyatining mohiyatini asoslaydigan umumiy ijodiy ko’rsatmadir. Ijodiy konsepsiya loyihaning qiymati va ma’naviy mazmunini belgilaydi. Ijodiy konsepsiyaning mazmuni va xarakteri nafaqat muallifni shaxsiy dunyoqarashi bilan balki loyiha madaniyati va jamiyatini rivojlanish asosiy raqobatlari bilan bog’liq. Dizayn insonlarning ehtiyojini hisobga olishi zarur va ular muamolarini yechishda o’z hissasini kiritish lozim[3].

Kostyum dizaynida mavjud konsepsiyalar odatda o’z davr va dizaynining asosiy muammolarni oqimidadirva turmush tarzini o’zgarish umumiy raqobatlari bilan bog’lanishidadir. Ya’ni buyumning funksiyasiga dizaynerlar o’zgacha qarashadi, garderobini ta’minlash turli konsepsiyalarni tarafdorlari bo’ladi, har xil shakllantirish usullarini qo’llashadi , turli turmush tarzda yashayotgan insonlarga o’z kiyimlarini taklif etadi.

Dizayn konsepsiyalarini loyihalash quyidagi asosiy yo’llar bilan kechadi:

- baholash yo’li loyihalashni jamiyat va insonning turmush tarzi va shaxsning turini, ijtimoiy va shu jumladan, estetik qoidalari bilan bog’liq ob’ektiv va sub’ektiv boyliklarni yaratish faoliyatini ko’rib chiqadi;
- tizim yo’li dizayner loyihalash ob’ekti moddiy – funksional va ijtimoiy – madaniy elementlarini o’zaro bog’liq tizim sifatida ko’rib chiqadi. Tizim yo’li muhit, uning elementlarini, inson va jamiyatni ishtirokida o’tayotgan jarayonlar orasidagi aniq funksional bog’liqlarni aniqlashni ko’rib chiqishni talab qiladi. Loyihalashda shunday yo’lning natijasi – tizimli ob’ektni tuzilishi;

- muhim yo'li – inson fazoviy – buyum muhitini, hayotiy atrofini o'zlashtirish natijasini ko'rib chiqadi. Insonning faoliyati va muomalasi muhitni ayrim elementlarini birgalikda bog'laydigan markaz va aniqlaydigan faktor sifatida e'tiborga olinadi. Bu holda loyihalash yaxlit siymoni yaratishga va muhitni funksional tashkil etishga yo'naltirilgan.

Dizaynerlarning muallif ijodiy konsepsiyalari, odatda, loyiha madaniyatni rivojlanish umumiy tendensiyalaridan xoli emas va dizaynda mavjud u yoki bu umumiy konsepsiyalarga qayd qilmaydi.

Bitiruv malaka ishida konsepsiya sifatida xonalas matosidan foydalanib kichik yoshdagi qiz bolalar uchun bashang liboslar tanlab olindi.. Ushbu to'plamda mato naqshlariga hamohang bezak mato fatin matosi ishlatildi va yorqin rangdagi guldan abadokar bezak sifatida qo'llanildi.

Kiyimdagi ranglar hamda silueti 2016-yil bahor va yozningyana bir zamonaviy tendensiyasi hisoblanadi. Lekin faqatgina atlas va fatin matosigina emas, balki boshqa matolar ham qo'llanishi mumkin. Umuman olganda, xonatlas matosi bir necha yildan buyon moda miqyosida o'rin egalladi, lekin har bir mavsumda yangicha talqinlarda ko'rish mumkin.


1.2.Kichik yoshdagi qizlarbolalar bashang liboslarito'plami bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi.

Milan, Nyu-york, London va Parijda bo'lib o'tkan moda haftaligi kelasi mavsumda nimalar, qanday uslub va qanday kostyumlar modaga kirishi haqidatushuncha berdi desak ham mubolag'a bo'lmaydi [24,25].

Bolalar modasi ham kattalarnikidan qolishmaydi. Shu sababli ham jahonning mashhur dizaynerlari, turli uslub va ranglar uyg'unlashuvini sinab ko'rishni taklif qilishmoqda. Kattalarnikiga xos oddiylik va bejirimlik yaqqol ko'zga tashlanadi.

2016 yilgi mavsumda ikki qarama qarshi holatdagi tendensiyalar va ranglar uyg'unligini ko'rishimiz mumkin. Bir tomondan bolalar libosida qora va oq hamda kulrang ranglar ustunlik qilib oldi. Bu esa bolalarning yorqin ranglarga burkangan moda olamida butunlay yangilik yasadi [26].

2016 yilda romantika uslubida ishlovchi dizaynerlarni ishi oldingidan o'zgacha bo'lib unda bolalar liboslari juda nafislik bilanurg'u berilgan(1-rasm). Bashang liboslar ko'rgazmalari turli hil davlatlarda o'tkazildi. Bo'lib o'tgan ko'rgazmalarda bolalar kiyimlari beg'uborlilik bilan namoyish eta olishgan. Romantika uslubida ishlayotgan barcha dizaynerlarning to'plamlarini siluetlari birxixildir.



1-rasm.Dolce Gabbana to'plami (2014-2015y.)

Dolce Gabbananing 2015 yildagi kolleksiyasida ham romantika uslubining “yuksak moda” yo’nalishini ko’rishimiz mumkin. Dizayner boshqarilgan liboslariga biser, qimmatbaho tosh va matolar bilan ishlov bergan. Uning kolleksiyasida har xil tusdagi ranglardan foydalangan. Shu bilan birga Dior ham o’z kolleksiyasida bolalar liboslarini har xil burmavatahlamalar bilan ochib bergan. (3-rasm)



3-rasm Diorto'plami (2014-2015y.)



4-rasm

1.3. Marketing tadqiqotlar.

Marketing tadqiqotlari deganda marketing faoliyatining turli jihatlari bo'yicha ma'lumotlarni sistemali yig'ish, tartibga solish va tahlil qilish tushuniladi. Marketing tadqiqotlari marketologlarni axborotlar orqali bozor, is'temolchilar, raqobatchilar va marketing tashqi muhitning boshqa elementlari bilan bog'lovchi funksiya hisoblanadi. Marketingtadqiqot va bozorni o'rganishdan asosiy maqsad iste'molchilarni didi va talabini qanday uslubdagi mahsulotlar ko'proq yoqishi va haridorligi o'rganib, tahlil qilishdan iborat[8]

Hozirgi kunda bozorlarimiz kiyim kechaklar bilan to'lgan. Bozorda har doim sifatli narxi esa arzonroq hamyonbop mahsulotlarga talab katta bo'lgan. Bitiruv malaka ishida marketing tadqiqotni o'rganish uchun Toshkent hududidagi deyarli barcha bozorlar, do'konlar, taniqli ayrim butiklar tahlil qilindi. Bozorlardagi ko'plab mahsulotlarning deyarli barchasi Xitoydan keltirilgan bo'lib, narxlari jihatidan o'rtamiyona, hamyonbop, sifati esa yuqori darajaga javob bermaydi.

Toshkent hududidagi yirik Afsona, Mega planet, Poytaxt kabi savdo do'konlarida sifatlari har xil, ammo narxlari ancha baland bo'lgan mahsulotlar ko'rib chiqildi. Bundan tashqari tanlangan, assortiment bo'yicha bozorni o'rganib borilganda, ko'plab xaridorlar tavsiyasi bilan yaqinda ochilgan BAA brendining Red Tag katta do'konining mahsulotlari ham taxlil qilindi. Bu do'konlarni taxlil qilish natijasida shu narsa aniq bo'ldiki narxi hamda sifat borasida o'z haridorlariga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari hozirgi kunda Toshkent shahrida ochilgan katta "Bolalar dunyosi" , "Erkatoy" kabi do'konlarda ham Xitoy, Turkiya, Korea, Eron, Tailand kabi mamlakatlardan keltirilgan bolalar kiyimlari bilan bir qatorda, O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tabiiy paxta tolasidan ishlab chiqarilgan bolalar kiyimlari ham o'rin olgan. Ularning ham ko'p qismi talabga javob beradigan bo'lsa, ba'zilar hali ham sifat darajasiga ega emas.

O'zbekistonda hali talab katta darajada ommabop,sifatli hamda so'nggi moda tendensiyalariga xos darajada ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan, faqatgina individual tarzda xaridor talab tavsiyasiga monand yaratilmoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlarni o'rganib tahlil etilganda,shu narsa ma'lum bo'ldiki, bolalar ko'ylagi modellari muntazam ravishda keskin o'zgarib kelgan.Unda asosan siluet, shakl, ranglar uyg'unligi,faktura, bichimda esa yoqa, yeng, qo'shimcha detall va bezaklar, hamda akssesuarlar o'zgarib borishini kuzatishilishi mumkin(5-rasm).



5-rasm



6-rasm.

1.4 Bolalar liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablar.

Ma'lumki kiyimga qo'yiladigan bir qancha talablar mavjud. Ushbu to'plam aynan bolalar uchun yaratilganligi sababli unga qo'yiladigan ba'zi talablar o'ta muhim sanaladi.

Eng birinchi navbatda bu – gigiyenik talablardir. Gigiyenik sifat ko'rsatkichlari sanitariya va gigiyena me'yorlariga moslikni xarakterlab, kiyim ostida qulay mikro iqlimni ta'minlashi kerak. Tanlangan mato tabiiy tolali bo'lib havo o'tkazuvchan bo'lishi muhimdir [2].

Estetik ko'rsatkichlar-kiyimni shaxsiy iste'mol predmeti sifatida baholashda o'ziga xos ahamiyatga ega. Estetik xususiyatga ega bo'lmagan kiyim foydasiz buyumga aylanadi, chunki bu bolaning estetik talabini qondirishi kerak.

Estetik ehtiyoj, go'zallik qonunlariga ko'ra, insonning go'zallikkava ijodga bo'lgan talablarini bildiradi. Kiyim muayyan davrga xos yetakchi badiiy tarzlarga mos loyihalangani.

Estetik ko'rsatkichlar sinfi uch guruhga bo'linadi: zamonaviy uslub va modaga mosligi; model kompozitsiyasining mukammallik darajasi; buyumning xaridorgir ko'rinishi

Kiyim nafosatining ifodalanish darajasi barcha konstruktiv elementlarning nafisligini aniqlaydi. Shakl tektonikasi buyum shakli, konstruksiyasi, materiallar xususiyatlarining o'zaro bog'lanishi va uyg'unlashuvidir.

Kiyimning estetik ko'rinishi barcha konstruktiv elementlarning (detallar simmetrik joylanishi, biriktiruvchi va bezatuvchi choklarning ravonligi, astarning sifati va buyumning rangiga mosligi va h.k) o'ziga xos yechimi, ifodaliligi, buyumning xaridorgir ko'rinishini ta'minlaydigan elementlari majmuiga (firma savdo belgisi, yorliq, upakovkaga) bog'liq. Ta'kidlanganidek, buyumning xaridorgir ko'rinishi to'rtinchi bosqichda tashqi ko'rinish, ichki bezaklar va firma belgilarining ifodaliligi ko'rsatkichlari yordamida baholanadi.

Funksional ko'rsatkichlar-kiyimning asosiy vazifasiga, iste'molchining tashqi ko'rinishiga va uning psixologik xususiyatlariga mosligini bildiradi. Buyumning

barcha xossalari uning vazifasiga bog'liq holda tanlansa, buyum insonning ehtiyojini qondira oladi. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yiladigan talablarni shakllantira oladi. Bolalarning yoshi, o'lchamlari, to'lalilik guruhlari ichida tashqi ko'rinishi vapsixologik tuzilishida keskin farqlanish mavjudligi bois bir xil vazifali kiyim ham ushbu guruhlariga mansub bo'lganxususiyatlar hisobga olingan holda loyihalanadi.

Ergonomik ko'rsatkichlar buyumning insonga moslashganlik darajasini bildiradi. Ergonomika (*ergon* — mehnat, *nomos* — qonun) insonni muayyan faoliyat sharoitida o'rganadigan hamda inson, buyum va atrofdagi muhitning o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini o'rganadigan ilmiy fandır.

Kiyim inson tanasining 80 foizini bекitib, unda psixofiziologik taassurot (kayfiyat, toliqish xususiyati, issiqlik, sovuq, komfort, qulaylik, bosim va h.k.) uyg'otadi.

Kiyim konstruksiyasining sifatini aniqlashda «qulay» va «komfort» degan tushunchalar mosroq tuyuladi. Lekin, inson noqulay kiyimga o'rganib, uni qulay hisoblashi mumkin. Shu bois, inson — kiyim tizimini baholashda aniqroq standart ko'rsatkichlari qo'llaniladi: antropometrik gigiyenik, psixofiziologik. Kiyim loyihalashda antropometrik ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Odamning kiyim bilan kontakti tinch holat (statika)da va harakatda (dinamika)da farqlanadi. Shu bois antropometrik moslik to'rtinchi bosqichda statik moslik va dinamik moslik ko'rsatkichlariga bo'linadi. Statik moslikning antropometrik ko'rsatkichlari 5-darajada quyidagicha baholanishi mumkin: ekspluatatsiya jarayonida kiyim detallarining materiallarida deformatsiya darajasi;qo'llar ko'tarilgan vaziyatda buyum etagining siljishi.

Bu ko'rsatkichlarga kiyim oson kiyilishi va yechilishi kiyim ayrim elementlarning qulayligi hamda kiyimning massasi kiradi.

1.5 Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash.

Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitining turli elementlari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet , teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnikmavzular, me'morchilik, muhandislikinshoatlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san'at asarlari (shisha, tosh, yog'och, metall, keramika va b.), musiqa asboblari, yer fakturasi, yulduzli osmon, origami o'yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassikkostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va h.k. dan foydalanish mumkin.

Har bir dizayner o'z faoliyatining muayyan bosqichida tarixiy va xalq an'analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbaalarga murojat qiladi.

Ijodiy jarayon - shakl va mazmun birligini jamlash uchun muhim. Ba'zan yangi va qiziqarli ijodiy manbaa topish muammoga aylanadi. Bu an'anaviy dizayn usullari yordamida hal qilinadi. Shuning uchun loyiha dizayner ijodiy fikrlashiga va dizayn jarayonining kuchaytirishi, rivojlantirishga qaratilgan.

Butun dunyo bo'ylab dizaynerlar dizaynning har bir sohasida yangi g'oyalar qidiraptilar (sanoat mahsulotlari, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari yoki qadoqlash dizayn bo'lsin), birinchidan, yangi mahsulotlar yaratish, ikkinchidan zamonga mos bolish uchun. Tovarlarini ishlab chiqaruvchi firmalarga qiziqarli g'oyalar muhim va yangi original g'oyalar cheksiz emas. Bu qidiruv usullarida rassom-dizaynerlari yordam beradi.

Bu tartibga solish va ijod jarayonini faollashtirishga imkoniyati beradi.

Usul uyushmasi - g'oyalarni shakllantirish usullaridan biri. Agar dizayner ijodiy xayoli, turli g'oyalar mukammal bo'lsa buyuk ta'sir berishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy dizayn ijodiy fikrlash loyihalashning mutlaqo yangi yo'li hisoblanadi.

Dizayni birlashtiruvchi manbaa, bunga dizayner fikrining rivojlanishi, grafik turlari va psixologik birlashmalari kerak. Ijodiy jarayonda assotsiativ fikrlash juda muhim ahamiyatga ega.

San'at har qanday ish kabi fikrlash uchun ijrochining (dizayner) qobiliyati, ijod asosidir. Dizayner kiyimni kiyim aylantirishi uchun hohlagan narsani ijodiy manba qilib olishi mumkin. aylantirish mumkin deyarli hech narsa olishi mumkin.

Libos dizaynida ijodiy manba har qanday tabiiy hodisalar, ijtimoiy voqealar, bizni o'rab turgan ob'ektlar bo'lishi mumkin. Dizayner kiyim yaratganda ularga hajmlar, inshootlar turlari bilan bog'lagandan, har qanday shakllardan ham manfaatdordir.



Konsepsiyaga asoslanib, tanlangan mavzudan yiroqlashmaganholda, ijodiy manbaga “navro’zgul” guli (7-rasm) olindi. Bolalar assortimenti uchun eskizlar ishlab chiqildi. Ijodiy manbada xon atlas matosining ranglar yorqinligi, navro’zgulining shakliga, uning nafis hamda yorqin rangli gul barglariga fatin matosining harirligini takrorlanishiga tayanildi (8-rasm).



7-rasm ”Navro’zgul guli”



8-rasmNavro'zgul uslublash.



9-rasm

2.Loyiha qismi

2.1.1. Kolleksiyaning kompazitsion yechimi va koloristik qatorini tanlash

Rang buyumning eng muhim informatsion sifatlaridan biri hisoblanadi. Bizni o'rab olgan tashqi muhit – rangli olam tabiatda rangsiz mavjudot, o'simlik, buyum yo'q. Odam yaratgan asarlari orasida ham rangsiz buyumlar yo'q(11-rasm).

Rang orqali biz mahsulot haqidagi ma'lumotga ega bo'lamiz. Uning rangi og'ir va yengilligiga qarab model yoki buyum haqidagi tasavvurga ega bo'lamiz. To'q ranglarni og'ir, och ranglarni esa yengil tasavvur etamiz. Rangni fizik xossalarning ta'siri ko'rimlilik va salobatlilik taasurotini beradi. Ko'pgina tadqiqot o'tkazgan olimlarning asarlarida rang – bu qandaydir kuch deb atalganligi, odamning ruhiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi mumkin. Ranglar odamlarning turli his-tuyg'ularini uyg'otadi.

Yashil rang–bu yozning rangi, bunda ham tabiat dam oladi (12-rasm).

Sariq rang–quvnoqlik, hayotdan hursandlik, chaqqonlik. Tajribani ko'rsatishga sariq rang iliq yoqimtoy tassurot qoldiradi(13-rasm).

Havo rang–odam pulsini sekinlashtirib, qon bosimini tushiradi, nafas olishni yaxshilaydi(14-rasm).

Ko'k rang – qimmatbaho sapfir toshning rangi, hind astronomiyasida ko'k rangni Saturn sayyorasining rangi bilan solishtiriladi[4,5,6].

Qizil rang – bu rang diniy ramzlar ichida Baxt va Quvonch tantana rangidir(15-rasm).

Xonatlas matosidan qiz bolalar liboslar to'plamini yaratishda yorqin ranglardan, ya'ni aynan bolalar psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini hisobga olgan holda ushbu ranglardan foydalanildi.Kolleksiyada ijodiy manba navro'zgul guli bo'lganligi sababli faqatgina yorqin ranglar koloristik qatori ko'rib chiqildi.



11-rasm



12-rasm



13-rasm



14-rasm



15-rasm





2.1.2. Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texnik tavsifini ishlab chiqish

Xonatlas va fatin matosibilan uyg'unlashgan, maktabgacha yoshdagi qiz bolalar uchun mo'ljallangan ko'ylaklar.

Silueti trapetsiyasimon. Ko'ylaklar astarli bo'lib, 2 qismdan iborat: lif va yubka.

Lif yuqori qismi yopishgan bo'lib, etak qismi kengaygan. Uzunligi tizzadan yuqori va tizzagacha. Old bo'lak; tog'ri bichimli bo'lib, 2ta bel vitochkasi mavjud. Bo'yin o'mizi ovalsimon va uchburchaksimon shaklida.

Ort bo'lak; 2 bo'lakdan iborat; o'rta chokli, yashirin molniya taqilmali va 2ta bel vitochkasi bor.

Yubka; 5 qavatdan iborat; 4 qavat fatin va astardan iborat.

1-6-modelda-bel qismida belbog', bezak vazifasini bajargan. yengi "qanotcha" shaklida 3 qavatdan iborat bo'lib, unda 1 qavat xon atlas va 2 qavat fatindan iborat.

2-modelda- yeng "qanotcha" shaklida 3 qavat fatindan iborat.


3-modelda-bel qismida belbog', bezak vazifasini bajargan. yengi "oval" shaklida bo'lib, yeng uchi burmaga yig'ilgan.

4-modelda-Lif qismi 3 bo'lakdan iborat bo'lib rel'ef vitochka vazifasini bajargan. Yengi "oval" shaklida.

5-7-modelda- yengi "qanotcha" shaklida 3 qavatdan iborat bo'lib, unda 3 qavat fatindan iborat.

8-modelda-bel qismida belbog', bezak vazifasini bajargan. yengi burmaga yig'ilgan bo'lib, "qanotcha" shaklida 2 qavatdan iborat bo'lib, unda xon atlas va fatindan iborat. Bo'yin o'mizi uchburchaksimon shaklida.


9-modelda-bel qismida belbog' fatindan matosidan bo'lib, bezak vazifasini bajargan. yengi burmaga yig'ilgan bo'lib, "qanotcha" shaklida xon atlas matosidan. Bo'yin o'mizi ovalsimon shaklida, kant bilan ishlov berilgan.



O'zg	List	XujjatNo	Imzo	Sana

EskizNo


List



O'zg	List	XujjatNo	Imzo	Sana

EskizNo


List



O'zg	List	XujjatNo	Imzo	Sana

EskizNo

List



O'zg	List	XujjatNo	Imzo	Sana

EskizNo

List



O'zg	List	XujjatNo	Imzo	Sana

EskizNo

List

2.2. Kolleksiyaning loyihalash usulini tanlash va asoslash.

Badiiy konstruksiyalash-bu yangi ijodiy loyihalash usulidir. Uning yordamida mahsulotning sifatini yuqori darajaga ko'tarish mumkin. Bu usul utilitar va estetik prinsiplar birligida asoslangan. Utilitar ma'nosida foydalilik, funktsionallik, foydalanishda qulaylik, mustahkamlik texnologiya jihatidan qulaylik va tejamlilik tushuniladi, estetik ma'nosi- go'zallik, nafislik, ifodalilik va ta'sirlilikdadir. Texnik estetika esa- badiiy konstruksiyalashning nazariy asosi. Bu tushunchalar bir biri bilan bog'langan, lekin ko'pincha utilitar xususiyat ustunroq baholanadi [9].

Sanoat buyumlariga oid yangi namunalarning badiiy jihatdan yuqori darajali sifati konstruktorlar, muhandis-dizaynerlar, psixofiziologlar, gigienistlar, san'atshunoslar, iqtisodchilar va boshqa qator mutahassislar hamkorligi orqali ta'minlanadi.

Kostyum loyihalash-bu tadqiqot etib, eskizlar, maketlar va modellarni yaratish, buyumlarni chizmasini va hisobini ishlash, tajriba uchun namunalarni ishlash, tajriba uchun namunalarni ishlash, belgilangan xususiyatlarga ega yangi kiyim namunasini yaratish jarayondir.

Loyiha vazifalarni eng optimal variantini qidirish jarayonida muhandis – hisobchi usuli tanlandi. Muhandis –hisobchi usulida bir qator metodikalar ichidan Ingliz metodikasi tanlandi. Ushbu metodika tanlanganining sababi shundaki ushbu metodikada o'lcham bo'yicha madallashtirilayotgan kiyim qomat bo'ylab moslashishi juda yaxshi bo'lganidadir.

Konstruktiv nuqtalarning belgilanish sistemasi va noldan boshlab o'sib boruvchi raqamlarning ishlatilishi asosiga binoan andazani qurish sxemasining mohiyati bo'yicha har bir nuqtaning joylashish ketma-ketligini aniqlash mumkin. Konstruktorlik modellashtirishning barcha usullari rasmlarga olingan bo'lib modellarning texnik rasmlari va konstruktorlik o'lchamlar asosida bajarilgan andazalar sxemasi ko'rsatib o'tilgan.

2.3.Konstruktor-texnologik qism

2.3.1.Kolleksiya uchun materiallar paketini konfeksiyalash

Taklif modellarni yaratayotgan vaqtning o'zida dizayner modelyer uni qaysi matodan tikishni ko'z oldiga keltirib tasavvur qilib ko'radi.

Eskiz yaratayotgan paytda avvalambor unga ketadigan matodan tashqari qanday furnitura mahsulotlari ketishini chamalab ko'rilishi kerak.

O'lkamizda to'qiladigan ipak, paxta gazlamalarining turlari juda ko'p. Masalan, xon atlas, adras, beqasam, banoras, doz adras va h.k. Bularning bari matolarni bo'yash san'atining yuksakligi mahalliy gazlama to'qish uslublari ular qo'lidan chiqadigan matolar rang - barangligi va naqsh ikatlarning bir - biriga o'xshamasligi, nafisligi bilan ajralib turadi [14].

Tabiiy tabiat inomlaridan yaratilgan bu matolarda tana bermalol nafas oladi.Ma'lumki, tabiiy matolarning inson sog'lig'iga hech qanday yomon ta'siri va zarari yo'q. Aksincha, u tana nafas olishiga, yordam beradi, terlatmaydi, ventilyatsiya vazifasini yaxshi bajaradi.[15].

Bitiruv malaka ishida milliylikdan yiroqlashmagan holda xonatlas matosi tanlab olindi.Tanlagan matoxon atlas haqida gapiradigan bo'lsak , avvallari xon atlasni kelinlar sarpasida uchratish mumkin edi. Bugungi kunga kelib kichik yoshdagi qizlar, ayollarimiz uchun bashang liboslar yaratilishida xizmat qilmoqda, endilikda bu mato yosh dizaynerlar orasida ommalashdi va sekin asta kundalik hayotimizga kirib keldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu mavsumda ko'pgina taniqli dizaynerlar bor e'tiborlarini ipak, adras,fatin matolariga qaratgani ko'rinadi. Moda pokazlarida poudiumga chiqqan ko'p kolleksiyalarda buni yaqqol ko'rish mumkin.

Matolarning mexanik xossalari. Matoning mexanik xossalariga pishiqligi, uzayishi, ishqalanishga chidamliligi, g'ijimlanuvchanligi, qattiqligi va boshqa xossalar kiradi.

Matoning fizik xossalari. Matoning fizik xossalariga gigroskopikligi, havo o'tqazuvchanligi, bug' o'tqazuvchanligi, suv o'tkazmasligi, xo'llanuvchanligi, chang oluvchanligi, elektrlanuvchanligi va boshqa xossalari kiradi. Fizik xossalariga qo'yiladigan talablar gazlamalarning vazifasi bilan belgilanadi va ularning tola tarkibi, tuzilishi va pardozi bog'liq bo'ladi.


Matoning gigienik xossalari. Ipak gazlamalarining gigienik xossalariga uning inson salomatligi uchun xavfsiz va zararsiz ekanligini ta'minlaydi. Shunga ko'ra ipak gazlamalar o'zida gigroskopiklik, havo o'tkazuvchanlik va xalqaro standartlar (ISO, ASTM), Respublikamizdagi mavjud standart metodikalari tomonidan baholandi.

Gazlama xossalariga tolaning uzunligi, qalinligi, ularning mustahkamligi, mayinligi va pishiqligi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

2.1-jadval

№	Mato nomi	Mato tarkibi		Qalinligi		To'qilishi	Eni	Og'irligi
		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq			
1.	Xon-atlas matosi	ipak	ipak	120	140	polotno	40	120
2.	Fatin matosi	sun'iy	sun'iy	230		polotno	300	60
3.	Qotirma	kapron	viskoza	520	410	jakkard	150	80

Konfeksion karta

№	Nomlanishi	Namuna
1	Asosiy mato (atlas)	
2	Asosiy mato (fatin)	
3	Astarbop mato	
4	Qotirma	
5	Ip	
6	Taqilma (molniya)	

2.3.2. Konstruktsiyalash usulini tanlash va asoslash

Unifrend Aldrich- moda industriyasida yuqori malakali kadrlarni o'ziga jalb etuvchi ingliz metodikasi hisoblanadi. Liboslarni konstruktsiyalash- bu jarayon hisoblanib, uning asosiy obyekti "qomat-kiyim" sistemasidir. Qomat bo'yicha ma'lumotning, o'lcham beyelgilarining, qomat tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarining qanchalik to'liqligiga qarab chizmalarning sifati belgilanadi. Velikobritaniyada 20 ta o'lcham belgilarini YEMKO SEVning 32 ta o'lcham belgilari va 14 ta tekshiruv belgilari bilan qiyoslash uchun ishlatiladi. Shu sababli ko'pgina konstruktiv parametrlar hisoblanmaydi va bolalar tipaviy qomatiga mos tekshirilgan o'xshashliklar orqali amalga oshiriladi [7].

Konstruktiv nuqtalarning belgilanish sistemasi va noldan boshlab o'sib boruvchi raqamlarning ishlatilish asosiga binoan andozani qurish sxemasining mohiyati bo'yicha har bir nuqtaning joylashish ketma-ketligini aniqlash mumkin. Konstruktorlik modiyallashtirishning barcha usullari rasimga olingan bo'lib, modellarning texnik rasmlari va konstruktorlik o'lchamlar asosida bajarilgan andozalar sxemasi ko'rsatib o'tilgan.

Ingliz metodikasi tipaviy va notipaviy qomatlarga chizmalarni tayyorlash jarayonida paydo bo'luvchi qiyinchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalardan iborat. Shuningdek, diyetal chizmalarini balansini va mos kelishini tekshirish bo'yicha noyob metodika keltirilgan bo'lib, ular orqali maket matosidan tayyorlangan birinchi namunaning bichilish o'lchamlarining to'g'rililigini tekshirish va qomat ustida tekshirib ko'rish mumkin jarayonlarini amalga oshirish mumkin.

Unifrend Aldrich ingliz metodikasi modellashtirishning va konstruktsiyalashning noyob usullarini yaratishda dizayner g'oyasini rivojlanishiga imkon beradi.

2.3.3. Buyum asosiy detallar chizmalarini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar.

2.2.–jadval

№	O'lchamlar nomi	Shartli belgisi	Qiymati
1	2	3	4
1	Bo'y	P	110
2	Ko'krak aylanasi uchinchisi	O _{r3}	60
3	Orqa kengligi	III _c	24
4	Bel aylanasi	O _T	56
5	Bo'ksa aylanasi	O ₆	62
6	Yelka kengligi qiyamasi	III _{II}	8,2
7	Bo'yin qiyamasi	O _{III}	28
8	Ort bel chizig'igacha uzunlik	D _{TC}	26,6
	Ort o'miz balandligi	B _{np3}	14,4

2.3. – jadval

№	Qo'shimchani nomlanishi	Shartli belgi	O'lcham Qo'shimcha, sm
1	Ko'krak aylanasi qo'shimcha	O _{r3}	4
2	Orqa o'mizi balandligini qo'shimcha	B _{np3}	1
3	Yelka kengligiga qo'shimcha	III _c	0,5
	Bo'yin qiyamasi	O _{III}	0,3
5	Ort bel chizig'igacha uzunlik	D _{TC}	1,25

2.3.4.AK va MK hisobi va qurish.

Asos konstruktsiya chizmasing hisobi.

2.4. - jadval

№	Konstruktsiya bo'lagi	Formula, xisob	Qiymati, sm
Baziz to'ri			
1.	0 - 1	$D_{TC} + 1,25$	27,85
2.	0 - 2	$\frac{1}{2} O_{r3+4}$	30,5
3.	0 -4	1,25	1,25
4	4 - 5	B_{pr3+1}	15,4
5.	4 - 7	$\frac{1}{2} /4-5/$	7,7
6.	4-8	$\frac{1}{4} B_{pr3+2}$	1,15
7.	0-9	$1/5 O_{III}+0,3$	5,6
8.	5-10	$\frac{1}{2} III_{c}+0,5$	11,5
9.	9-12	III_{II}	8,2
10.	2-13	$1/5 O_{III}$	5,3
11.	2-14	$1/5 O_{III}$	5,3
12.	12-15	0,5	0,5
13	13-16	III_{II}	8,2
14.	6-17	$/5-10/-0,7$	10,8
15.	17-18	$\frac{1}{4} /4-5/$	3,4
16.	17-19	$\frac{1}{2} /10-17/$	
17.	10-21	2	2
18.	17-22	1,75	1,75
19.	3 - 23	1	1

2.3.5. AK va MK konstruktiv dekorativ modellash.

Detallar andazalarining chizmasi bu ularning konstruksiyasini, shakli va o'lchamlarini, ishlov berish hamda bichishdagi texnik shartlarini ifodalaydigan texnik hujjatdir. Andazalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga, konstruktorlik hujjatlarning yagona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi [16].

Kiyim detallari andazalarining chizmasi konstruksiyaning model xususiyatlari kiritilgan texnik chizma asosida tavsiya qilingan materiallar xususiyatlari haqidagi va ularga texnologik ishlov berish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar yordamida tuziladi. Andazalar chizmasi quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

- konstruksiya chizmasi batafsil tekshiriladi;
- chizmaga gazlamaning kirishuvchanligi bilan bog'liq aniqliklar kiritiladi;
- detallar chizmasining nusxalari boshqa qog'ozga tushiriladi;
- asosiy detallar andazalarining ishchi chizmasi quriladi;
- hosila va yordamchi andazalarning ishchi chizmalari quriladi;
- ishlab chiqarishda foydalanishga mo'ljallangan andazalar chizmasidan andazalar shablonlari tayyorlanadi.

Qayd etilgan ketma-ketlik quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Konstruksiya chizmasini tekshirish maqsadida old va orqa bo'laklar, qirgma yon bo'lak, yenglar, ostki yoqa singari asosiy detallarning nusxasi maxsus moslama yordamida chizmadan qalin qog'ozga ko'chiriladi va qirqib olinadi. Qirqib olingan andazalar shablonida ko'krak, bel, bo'ksa chiziqlari, old o'tar chizig'i, vitachkalar, cho'ntaklar chizig'i va boshqa asosiy konstruktiv chiziqlar belgilanadi.

Andazalar shablони yordamida konstruksiya chizmasida biriktiriladigan qirqimlarning tengligi, konstruktiv qirqimlar tutashmalari, nazorat kertiklar joylarining detallarda o'zaro mosligi tekshiriladi.

Asosiy va bazaviy konstruksiyalash konstruktiv dekorativ model usulda qilingan.

Old bo'lak lif qismi ajratildi, lif qismiga yubka qismi yarim aylana shaklida ulanadi, etak qismi 2 bo'lakdan iborat. Old bo'lak bel vitochkasi modelashtirilgan stilda dekorativ belbog' mavjud .

Ort bo'lak lif qismi ajratildi, lif qismiga yubka qismi yarim aylana shaklida ulanadi, ort bo'lak bel vitochkasi modelashtirilgan.

Yeng uzunligi model bo'yicha aniqlandi va modelashtirildi.

Buyum uzunligi model bo'yicha aniqlandi va modelashtirildi.

2.3.6. Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish.

Andozalardagi chok haqlari.

2.5.-jadval

№	Detalvaqirqimlarnomi	Chok haqi nomi va qiymati, mm				
		Biriktirma	Mag'iz	Buklov	Kirishtirish	Qirqish
1	2	3	4	5	6	7
1.	01. Ortbolak - bo'yin qirqim - yelka qirqim - o'miz qirqim - yon qirqim - bel qirqim - o'rta qirqim	0,7 10 10 10 10 10				
2.	02. Old bo'lak - bo'yin qirqim - yelka qirqim - o'miz qirqim - yon qirqim - bel qirqim	0,7 10 10 10 10				
3.	03. Yubka - bel qirqim - o'rta qirqim	10 10				
4.	04. Yeng -Yeng qiyamasi -Yeng uchi	10		0,7		

Andazalar spetsifikatsiyasi.

№	Qismlar nomi	Qismlar soni		Belgilanishi
		detallar	andozalar	
	1	2	3	4
1	Ort bo'lak	2	1	001
2	Old bo'lak	1	1	002
3	Asosiy yeng	2	1	006
4	Ort astar	2	1	007
5	Old astar	1	1	008
6	Etak	3	1	003
7	Belbog'	1	1	004
8	Qo'shimcha yeng	2	1	005
9	Ort qotirma	2	1	009
10	Old qotirma	1	1	010
11	Etak astar	1	1	011

**Detallarda tanda ipining nominal yo'nalishi va andozalarda ulardan yo'l
qo'yilgan og'ishlar.**

2.7.-jadval

№	Detal nomlanishi	Tanda ipi yo'nalishi	Tanda ipining yo'l qo'yilgan og'ishi, %
1	2	3	4
001	Ort bo'lak	O'rta chizig'iga perpendikulyar	1%
002	Old bo'lak	Bel qirqimiga perpendikulyar	1%
006	Asosiy yeng	Yeng uchiga perpendikulyar	1%
007	Ort astar	O'rta chizig'iga perpendikulyar	3%
008	Old astar	Bel qirqimiga perpendikulyar	2%
003	Etak	O'rta chokiga perpendikulyar	3%
004	Belbog'	O'rta chizig'iga perpendikulyar	5%
005	Qo'shimcha yeng	Yeng uchiga perpendikulyar	1%
009	Ort qotirma	O'rta chizig'iga perpendikulyar	1%
010	Old qotirma	Bel qirqimiga perpendikulyar	1%
011	Etak astar	O'rta chokiga perpendikulyar	2%

Andazalarda nazorat kertiklar qo'yish joylarining ro'yhati

2.8.-jadval

№	Detallar va qirqimlar	Kertiklar joylanishi
1	2	3
1.	Old bo'lak - Yeng o'mizi	Yeng o'mizi chizig'ida
2.	Ort bo'lak - Yeng qirqim	Yeng omizi qirqimida
3.	Yeng - Yeng balandligi	Yeng balandligi markazida

2.3.6.2. Andozalar joylashmasi

Joylashma passporti:

Nomlanishi: Qiz bolalar ko'ylagi.

Antropometrik tavsifi: 110-60-62.

Joylashma turi: Yuzama-yuz, buklov.

Gazlama turi: Xon atlas,fatin,astar.

Joylashma eni: 80, 150 300.

Gazlama guli:ikat, sidirg'a.

Joylashma uzunligi: Fatin:18000sm²

Xon atlas:5200sm²

Astar:14250sm²

2.4. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish

2.4.1. Nom tanlash (Brand-name)

Brend-bu raqobatchilardan farqlanish maqsadida aniq sotuvchi yoki sotuvchilar guruhining tovarlari va xizmatlarini belgilash uchun qo'llanadigan so'z, ifoda, belgi, simvol, dizaynerlik ishi yoki ularning kombinasiyasidir.

Brend – aniq bir ishlab chiqaruvchining tovarlari yoki xizmatlarini identifikasiya qilish, shuningdek, uni raqobatchilar mahsulotidan differensiya qilish uchun mo'ljallangan nom, termin, simvol, rasm yoki shu elementlarning kombinasiyasidir.

Xonatlas matosidan kichik yoshdagi qiz bolalar uchun bashang liboslar yaratilgandan so'ng ushbu kolleksiyaga „*INDI*“ deb nom berildi. Brend nomi ismning (Indira) qisqarmasidan yuzaga keldi. Qolaversa brend o'qilishi oson bo'lishi hamda esda qolarli bo'lishi uchun zamon talabiga javob beradigan o'ziga hos yozuv tanlandi. Yozuvning birinchi harfi ustiga milliyligimizni qaytaruvchi logotip sifatida, xon atlas ikatlarini takrorlanmas naqshlari gul siluetini eslatuvchi shakl bilan ishlab chiqildi.



2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.

Ko'p ming yillar davomida reklama insoniyatning doimiy hamroxi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

“Reklama” atamasi lotincha “reclamare” so'zidan olingan bo'lib, “qattiq qichqirmoq”, “habar qilmoq” ma'nolarini bildiradi [21].

Reklama – bu axborot tarqatishning pullik shakli bo'lib, u tovarni yoki xizmatni hajmini ko'paytirish maqsadida buyurtmachi tomonidan berilgan informatsiyani jamiyatga yetkazish usuli hisoblanadi.

Reklama quyidagi vazifani bajaradi:

- axborot beruvchi yangi tovar, firma aniq hodisa to'g'risida aniq ma'lumot beradi;
- bildiruvchi tovar yoki firmaga sekin-asta iste'molchilarni e'tiborini ko'paytirish, bilimlarini oshirish va shu tovarni sotib olishga undash;
- eslatuvchi haridlar orasida tovarni qayerdaligini unutmashlik va tovar to'g'risida axborotni esda tutishni ta'minlaydi.

Reklamani yaratish quyidagi bosqichlardan iborat:

- iste'molchilarni o'rganish, reklama qilinadigan tovar yoki xizmatlarni o'rganish va bozorni o'rganish;
- reklama vositalarini ishlatish, ishlab chiqarish, maqsadni aniqlash va qo'yish, bozor chegaralarini belgilash va ijodiy yondashuvni ishlab chiqish;
- reklama vositalarini tanlash va ularga sarflanadigan harajatlarni hisoblash. Narx va e'lonlarni ko'rsatish grafiklarini ishlab chiqish;
- e'lonlarni mazmunini tuzish, badiiy bezatish va ishlab chiqarish.

Reklama turlari bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- televidenie va radioreklama;
- baner reklama;
- suvenir yoki buyumli reklama;
- direkt meyl;

- tashqaridagi (narujnaya) reklama: brandmauerlar, videopanellar, siti format, yo'l ko'rsatkichlar, tranzit reklama, reklama, laytboksif, chiroqli panellar.

Hozirgi kunda reklamaning juda ko'p turlari mavjud. Yuklangan vazifasiga ko'ra, reklama turlicha klassifikatsiyalanadi. Masalan, tarqatish vositalariga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi.

- tashqi reklama;
- transportdagi reklama;
- matbuotdagi reklama;
- TV dagi reklama;
- radio orqali reklama;
- internetdagi reklama;
- manzilli marketing;
- ko'rgazmalar;
- assotsiativ reklama.

Tashqireklama: bilbordlar, elektrontablolar, e'lonlar, ko'chajihozlari, vetrinavafasatlarning sifatli bezagi, reklamaliko'rsatkichlar va afisha qurilmalarivahokazo. Bundan tashqari buklet, flayer va bannerlarda tasvirlangan reklamalar mavjud bo'lib, ushbu to'plam uchun banner usuli tanlandi va kolleksiya reklama loyihasi ishlab chiqildi.

3.Mehnat muhofazasi va ekologiya qismi.

Kiyim loyihalash xonalarida yoritilganlikning ahamiyati.

Mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilishi maxsus davlat organlari va jamoatchilik tomonidan nazorat qilib boriladi. Qonunlarga, shu jumladan, Mehnat muhofazasiga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan O‘zR Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar umumiy nazorat olib boradi. Mehnat muhofazasi haqidagi qonun talablarini buzgan korxonalarga moliyaviy-iqtisodiy jazo choralari, ularning mansabdor shaxslariga nisbatan esa institut nizomiy, ma‘muriy huquqiy, jinoiy javobgarliklar qo‘llanishi, ular aybi bilan yetkazilgan moddiy zarar qoplantirilishi mumkin.

Mehnat muhofazasi - insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat salomatligi va ish qobiliyatining saqlanishiga qaratilgan tadbirlar. Qonun hujjatlarida mehnat jarayonida qo‘llaniladigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, sanitariyagigiyena, davolash-profilaktika choratadbirlari belgilab qo‘yiladi. Mehnat qiluvchi shaxs xavfsizligi, salomatligi, mehnat qilish qobiliyatini himoyalash, sog‘lom mehnat sharoitlari yaratish, kasb kasalliklari yuz berish xavfini oldini olish, ishlab chiqarishda jarohatlanishlarga yo‘l qo‘ymaslik kabilar Mehnat muhofazasi oldidagi vazifalar hisoblanadi.

Bugungi kunda ekologiya muammosi insoniyat tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Hozirda ekologiya jamiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro muammolarini o‘rganadigan ijtimoiy fan deb qaraladi.

Kostyum dizaynerlari ijodida ham ekologik muammolar inobatga olinib boshladi. Dizaynerlik ishida dastlab 1970 yy. oxirida – 1980 yy. boshida ekologik muammo mavzusi ko‘rib chiqilgan va "Ekologik uslub" urfga kirgan.

Asosiymaishiy ekologik muammolarini hal etish uchun barcha insonlarning ekologik ma‘daniyatini shakllantirish lozim. Buning uchun oilada milliy

qadriyatlar asosida va ta'lim tizimida ekologik madaniyatning negizini o'rgatish maqsadga muvofiq.

Ishlab chiqarishda texnologik jarayonni ekologizatsiyalash ya'ni tabiiy boylikni tejash, bezarar va chiqindisiz texnologiyalarni qo'llash, chiqindilarni saralash va qayta ishlash, buyumlardan qayta foydalanish va boshqalar insoniyat uchun ham iqtisodiy ham ekologik muammolarni yechadi.

Ishlab chiqarish xonalarining va ish joylarining yoritilganligi, mehnat gigiyenasining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning va ishlab chiqarish ma'daniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Yoritilganlik sifati yoritilganlik miqdori va yoritiluvchi yuzaning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Yoritiluvchi yuzaning yorug'lik oqimini qaytarish, yutish va o'tkazish koeffitsientlar orqali aniqlanadi.

Ishlab chiqarish xonalari va ish joylarini yoritish mehnat muhofazasining asosiy tadbirlaridan biridir hisoblanadi. Bu o'z navbatida quyidagilarga xizmat qiladi

- Ko'zni kam toliqtirish, ko'rish ishlari sharoitini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish va tikilayotgan buyum sifatini yaxshilash;
- Ishlab chiqarish muhitiga va ishchilarning psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish;
- Ishning xavfsizligini oshirish, ishlab chiqarish va tikish jarayonidagi jarohatlarini kamaytirish.

Tikish uchun mo'ljallangan xona kunduzi ishlash, meditsina – sanitariya talablari nuqtai nazaridan mukammal va iqtisodiy jihatdan arzon bo'lgan tabiiy yorug'likni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Tabiiy yorug'lik tuzilishi bo'yicha 3 turli bo'lib, binoning yon tomonidan, yuqori tomonidan va kombinatsiyalashgan, ya'ni ham yon ham yuqori tomonlama bo'lishi mumkin.

Tabiiy yoritish darajasi kunning vaqtiga va iqlimiy sharoitlarga bog'liq holda ish vaqti davomida o'zgarishi hisobli, ish joyining yoritilganligi bilan emas, balki tabiiy yoritilganlik koeffisienti orqali meyorlashtiriladi.

Yon tomondan beriladigan yorug'likka, binoning tashqi devorlaridagi oyna derazalari orqali quyosh nurlari kiribkiyim loyihalash xonalarini yoritadi. Yuqoridan beriladigan tabiiy yorug'lik bilan esa, binoning tomidagi fonar shed v zenit gumbazlari orqali yoritiladi.

Kiyim loyihalash xonalarida sun'iy yoritish: Sun'iy yoritish umumiy yoki kombinatsiyalashgan bo'lishi mumkin. Kombinatsiyalashgan yoritishda umumiy va mahalliy yoritish birgalikda qo'llaniladi. Umumiy yoritishda xona ichi umumiy chiroqlar yordamida yoritilsa, mahalliy yoritishda esa chiroqlar, bevosita ish joyiga yoki ish jihozi oldiga o'rnatiladi. Masalan, ish stoli ustida o'rnatilgan ko'chma chiroqlar, stanoklar yoki boshqa ish qurilmalarida o'rnatiladigan chiroqlar mahalliy yoritishga misol bo'la oladi. Umumiy yoritish ish jihozi va ish joyining joylashishiga bog'liq holda tekis yoki lokal korinishda bo'ladi. Bundan tashqari, sun'iy yoritish ishchi yoki avaryaga oid bo'lishi bo'lishi mumkin. Ishchi yoritishdan me'yoriy ish rejimini ta'minlash maqsadida tabiiy yoritish bo'lmagan yoki yetarli darajada emas joylarda foydalaniladi. Ishlab chiqarish xonalarining yoritilishi bo'yicha ish yuzalarining lyukslarda belgilangan yoritilganlik yorug'lik texnikasining muhim xususiyatlaridan biridir.

Xulosa

Ishchilar uchun tikish jarayonida yoritilganlikning ahamiyati juda ham yuqoridir. Ayniqsa ko'z sog'ligi mehnat unumdorligining yuqori bo'lishi, tikilayotgan buyum sifatining yaxshi bo'lishida yoritilganlik ahamiyatli ekanligi o'rganildi.

Xulosa

Kostyum dizayni kafedrası tomonidan “Xon atlas matosidan maktabgacha yoshdagi qiz bolalar uchun bashang liboslari to'plami dizayn loyihasini ishlab chiqish” mavzusi berilgan. Bu mavzu bo'yicha bitiruv malaka ishi loyihasida zamonaviy moda yo'nalishi va bozor talabiga javob beradigan 5 ta model tanlandi. Tanlangan model iste'molchi talablariga qanchalik mos kelishi o'rganib chiqildi.

Bundan tashqari ijodiy manbaa tahlil qilinib kolleksiya yaratildi.

O'zbekiston sharoitini o'rganib chiqilgan holda, komplekt uchun material tanlandi va material hususiyatlari o'rganib chiqildi. “Unifrend Aldrich ingliz metodikasi” uslubi bo'yicha konstruksiya qurish usuli tanlandi. Ishchi hujjatlar tuzilib yangi model andozalari tayyorlandi, andozalar modellashtirilgan holda tanda ipi va chok haqqilari berildi.

Bitiruv malaka ishiqiz bolalar bashang libosini texnologik jarayoni loyihalandi. Modelni tikish uchun buyum material hususiyatlarini hisobga olgan holda qo'shimcha setka, fatindan foydalanish mumkinligi ko'rib chiqilgan.

Xon atlas hususiyatlari va to'qilish turlari chuqur o'rganilib, xon atlas matosi ikatlariga mos ravishda bezak mato fatin bilan uyg'unlashtirildi.

Qo'llangan adabiyot va manbalar ro'yxati

1. I.Karimov “2015 yil yakunlari va 2016 yil ustuvor yo‘nalishlari” ma’ruzasi.
2. X.X.Kamilova, N.K.Hamrayeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. - T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2011.
3. Козлова Т.В. “Художественное проектирование костюма”М ЛП 1988 г.
4. Черемных А. И. “Основы художественного проектирования одежды” .М 1986 г.
5. Бердник Г.О. “Дизайн костюма” Ростов Феникс 2000 г.
6. Бердник Г.О. “Основы художественного проектирования одежды и эскизной графики костюма”.Ростов. Феникс. 2001 г.
7. Унифред Алдрич «Женская одежда». М: Издательский дом «ЭДИПРЕСС-КОНЛИГА». 2008
8. Ф.Котлер, К.Келлер. Маркетинг, менеджмент: пер. С англ.-СПб.: Питер, 2009
9. G.K.Xasanbayeva “Libos dizayni” ma’ruza matni. - T.: TTYeSI bosmaxonasi, 2011.
10. M.Sh.Jabborova “Tikuvchilik texnologiyasi”. – T.: “O‘zbekiston”, 1994.
11. Ф.М.Пармон “Композиция костюма”. - М.: Легпромбытиздат, 1985.
12. О.И.Крымова «Проектирование швейных изделий». – Т.: «Укитувчи», 1985.
13. Экологические проблемы и основные тенденции в современном дизайне одежды (Электронный ресурс) сайт Robiv.ru.-М.,2007.
14. J.Ochilov “Gazlamashunoslik”. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

15. Орленко Л.В., Гаврилова НИ.. Конфекционирование материалов для одежды. М.: Форум-ИНФРА-М, 2006
16. Мартынова А.И., Андреева Е.Г. Конструктивное моделирование одежды. М., 2002
17. COLESIONE 2013 (Журнал).
22. www.google.uz
23. www.ziyo.net
24. www.moda.uz
25. www.modnaya.ru
26. fashion_tv.com